

G'UYAVIY-MAFKURAVIY JARAYONLAR GLOBALLASHUVINING MILLIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI

Farhodjonova N.F.*

REZYUME

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida mamlakatimizga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlar va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashuvining milliy taraqqiyotga ta'siri, shuningdek, yosh-avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oyalardan hamda mafkuralardan saqlash hamda himoya qilishda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati alohida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, g'oya, mafkura, ma'naviyat, milliy g'oya, mafkuraviy jarayonlar, mafkuraviy tahdidlar, axborot, Internet, zamonaviy texnologiya.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещено воздействие в нашей стране идеологических угроз и идеологических процессов и его влияние на национальную развитие, а так же, в частности роль духовного воспитания в сохранения ума и сердца молодёжи от воздействия различных вредные идеи и мысли в условиях глобализации.

Ключевые слова: глобализация, идея, идеология, духовность, национальная идея, идеологических процесс, идеологических угроз, информация, Интернет, современная технология.

RESUME

This article highlights the impact in our country, spiritual and ideological threats processes at the national idea, and in particular the conservation of the mind and hearts of young people from the harmful effects of different ideas and thoughts in the context of globalization.

Key words: globalization, idea, ideology, spirituality, national idea, ideological process, ideological threats, information, Internet, modern technology.

* Farhodjonova Nodira Farhodjon qizi-Namangan muhandislik-pedagogika instituti o'qituvchisi

Globalashuv sharoitida O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan zamonaviy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurilishi, hozirgi davrda jahonda kechayotgan umumbashariy jarayonlardagi ishtiroki va ularning g'oyaviy-mafkuraviy asoslanishiga bog'liqdir. Shunga ko'ra, dunyodagi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini, ularning xalqimiz hayoti va taraqqiyotiga ta'sir xususiyatlarini tahlil qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

G'oya va mafkuraning ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyatlarini to'g'ri tushunish g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mohiyatini teranroq anglash imkonini beradi. G'oyaviy-mafkuraviy jarayon tushunchasi muayyan g'oyaviy qarashlar tizimining shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi bilan bog'liq bosqichlarning uzviy birligini ifodalaydi. G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar o'zgaruvchan harakterga ega bo'lib, eskirgan qarashlar, baholar, maqsadlardan voz kechilishi, qandaydir qoida, tamoyil, ko'rsatmalarning qayta ko'rib chiqilishi, takomillashtirilishi hamda voqelikka mos ravishda yangicha yondashuv va talqinlar paydo bo'lishi bilan belgilanadi.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar maqsad va manfaatlar namoyon bo'lishining amaliy tizimi sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. "Maqsadsiz faoliyat yo'q, manfaatsiz maqsad yo'q, faoliyatsiz esa hayot yo'q", - deb yozgan edi V.G.Belinskiy. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'z mohiyatiga ko'ra ideal hodisa hisoblangan, ko'zlanayotgan natijalar va unga erishish usullarining loyihasi sifatida chiqadigan maqsad inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan maqsad faoliyat izchilligini ta'minlashning muhim asosi hisoblanadi. G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarda maqsadlarni shakllantirishga alohida e'tibor berilishini qayd etish zarur. Bu jarayonda ko'plab odamlar qalbi va ongini egallab olish orqali o'ziga xos ta'sir ko'rsatish maydoni yaratiladi. Bu maydon ichida turli xalqlar, insonlar faoliyati mujassamlashadi. G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar har doim real mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatning in'ikosi hisoblanadi. G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar tushunchasi g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar – bilimlar, baholar, maqsadlarning shakllanishi hamda mafkuraviy qarashlarning tarqalishi, g'oyaviy tarbiyaning

amalga oshirilishi bilan bog‘liq sifatiy holatini ham ifodalashi mumkin. Shu ma’noda, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar g‘oyaviy tarbiyani o‘zgaruvchan voqelik va va ijtimoiy guruhlariga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, doimiy takomillashtirib borishni anglatadi.

“Odamzod baxti uchun hamma narsadan voz kechishga o‘rgatadigan ajib g‘oyalarni kishilarga singdirish buyuk san’atdir”, - deb yozgan edi fransuz yozuvchisi Stendal [1]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, g‘oyaviy – mafkuraviy jarayon zamon talablari darajasida g‘oyaviy tarbiyani o‘zgaruvchan voqelik va ijtimoiy guruhlariga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda doimiy takomillashtirib borish kerakligini anglatadi.

Albatta, g‘oyaviy – mafkuraviy globallasuv sharoitida ezgu, bunyodkor g‘oyalarning umumiy lashuv jarayoni ham yuzaga keladi. Demokratiya, gumanizm, tinchlik, barqarorlik, mustaqillik va ozodlik, qonunning ustuvorligi, inson erkinliklari kabi g‘oyalar bunday globallasuv sharoitida umumbashariy qadriyatga aylanib bormoqda. Ezgu, bunyodkor g‘oyalarning universiallashuvi, ularning umumbashariy qadriyatlarga mutanosibligigina insonlarni vayronkor g‘oyalardan saqlab qolishi mumkin.

Dunyoning nihoyatda o‘zgarib borayotgan hozirgi siyosiy-ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy qiyofasini tasavvur etish juda murakkab. Buning jiddiy sabablaridan biri, uning tez o‘zgaruvchanligidir. Jarayonning tez o‘zgarishi esa, o‘z navbatida, uning mazmun- mohiyatini to‘g‘ri tahlil etishga, xolis xulosalar chiqarishga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Umuman, mafkuraviy jarayonlar tez o‘zgaruvchanlikdan tashqari milliy taraqqiyotga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega. Mafkuraviy jarayon, eng avvalo, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy vaziyatni kompleks-sistemali tahlil etish orqaligina o‘rganilishi mumkin. Umuman, har qanday mafkuraviy jarayonga konkret umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazaridan yondoshilsa, to‘g‘ri ilmiy xulosa chiqarish mumkin.

Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmidagi mafkuraviy jarayon iqtisodiyotda yangi texnologiyalarni rivojlantirishga imkon bergan siyosiy vaziyat bilan hamohangdir. Shuningdek, dunyo siyosiy xaritasining 1917-1991 yillardagi o‘ziga

xos mafkuraviy xususiyatlari davrida mafkuraviy vaziyat sotsializm va kapitalizm kurashi asnosida baholandi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi mafkuraviy jarayon esa, buyuk davlatchilik shovinizmi, diniy ekstremizm, tajovuzkorlik va millatchilik g'oyalarini o'zida aks ettiruvchi siyosiy yo'nalishlarni vujudga keltirmoqda.

G'oya yoki mafkura ishlab chiqilishining o'zi uning kishilar faoliyatini belgilab beruvchi, unga ta'sir ko'rsatuvchi hodisaga, muayyan jarayonga aylanishi uchun yetarli emas. Buning uchun u kishilar orasida tarqalishi, jamiyat ana shu g'oyalar ortidan ergashishtira olish kuchiga ega bo'lishi lozim. Aks holda, har qanday mafkura u qanchalik jozibador bo'lmasin muayyan hodisa sifatida tarixda qolib ketadi. Ayni paytda, har qanday mafkuraviy qarashlar tarqalishi uchun eng avvalo ularni hayotga tadbiq etish lozim. Mafkuraviy tarbiya esa hamisha shakllangan g'oyaviy qarashlar, baholar va maqsadlar tizimini kishilarga yetkazish, ularning ongiga singdirishni ifodalashini unutmash lozim. Muayyan g'oyaviy – mafkuraviy jarayonlar ham o'z ibtidosi va intihosiga ega. Ular ma'lum davrda paydo bo'lib, kishilarning ongi va qalbidan joy olish orqali jamiyat rivojiga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazishi, yo'naltiruvchilik qudrati va birlashtiruvchilik salohiyatini yo'qotib, vaqti kelganda tarix sahnidan tushib ketishi ham mumkin.

G'oyaviy – mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi - g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi sababli Yer yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etayotganini ifodalaydi. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, kompyuter, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi tufayli g'oyaviy – mafkuraviy jarayonlar globallashib, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Biron – bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar axborot kommunikatsiyalari, aloqa infrastrukturasi takomillashishi tufayli tez fursatda

butun jahonga yoyilmoqda. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, yozuvning paydo bo'lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, hatto zamonlararo olib o'tishga yo'l ochdi. Gazeta va jurnallar nashr etishning yo'lga qo'yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televideniye esa, axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta'minlab, uni yanada yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Ommaviy axborot vositalarining qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko'rsatishi ham uning ta'sir doirasini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ular orasida Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida "turli eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda. Odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda"[2]. SHuningdek, g'oyaviy – mafkuraviy globallashtirish saviyasi past, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan "san'at asarlari"ning keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. YOshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchanligi hamda bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuksak kommunikativ faollik ko'rsatishadi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi tabiiy. Bu ularning "yumshoq erotika"dan tortib, "ochiq pornografiya" gacha, tajovuzkorlikdan tortib, ochiq vahshiylikkacha bo'lgan hodisalarni o'zida mujassam etayotgan, turli shakllar va "go'zal" ko'rinishlarda inson ongiga kuchli tazyiq o'tkazilishi agressiv g'oyaviy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligi bilan belgilanadi. Albatta bu kabi holatlar milliy g'oyaning taraqqiyot asosi bo'lgan barkamol yuksak ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalashda jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. "Agarki

bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda koʻzdan kechiradigan boʻlsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu gʻoya va taʼlimotlar bilan yovuz va zararli gʻoyalar oʻrtasida azaldan kurash mavjud boʻlib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini koʻramiz”[3].

Bugungi kunda inson oʻzi yaratgan kashfiyot va ixtirolarni kelajakda qanday natija berishini oldindan bilishga ojizlik qilmoqda. Gʻoyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi milliy taraqqiyotning oʻziga xos xususiyatlarini zaiflashuviga va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar hamjihatlikda shakllantirayotgan “ommaviy maʼnaviyat”ga singib ketishini xavfini tugʻdirmoqda. Globallashuv garchand insoniyat intellektual salohiyati va fidoyi mehnatining mahsuli boʻlsa-da, bugun uning maʼnan qashshoqlashuviga, milliy maʼnaviyat yemirilishining oldini olishga ojizlik qilyapti. Insoniyat oʻzi xohlamagan holda salbiy oqibatlar yuzaga kelishining yaratuvchisiga aylanmoqda[4].

Umuman olganda, gʻoyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yoʻnalish, tendensiya namoyon boʻlmoqda:

1) muayyan hududda yuzaga kelgan, umuminsoniy mazmunga ega qadriyatlar, maʼnaviy-maʼrifiy neʼmatlar oʻzi shakllangan tarixiy makon doirasidan chiqib baynalmilallashib, universallashib bormoqda;

2) ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy-madaniy rivojlanish darajasidagi turfa xillik, etnik, madaniy, konfessional, sinfiy, irqiy, hududiy, mintaqaviy yoki boshqa shakllardagi oʻziga xosliklarni mutlaqlashtirish insoniyat istiqboliga jiddiy xavf tugʻdiradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda.

Xullas, mafkuraviy jarayonlar alohida olingan mamlakatlar, mintaqalar doirasida ham, ijobiy va salbiy mazmunga ega gʻoyalar oʻrtasidagi kurashning keskinlashuvidek, aniq shakl-shamoyilga ega boʻlib qolmoqda. Bu insoniyatni oʻz istiqbolini taʼminlash yoʻlida birlashishga davr ilgari surayotgan tahdidlarni hamjihatlikda hal qilishga daʼvat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ochildiyev A. Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar.-T.:Muharrir, 2009.-B.11.
2. Karimov I. Jamiyat mafkurasini - xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin.-T.:O'zbekiston, 1999. -B.85.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.:Ma'naviyat, 2008.-B.112.
4. Otamurodov S. Globalashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik.-T.: O'zbekiston.-B.14.